Qurbonov Shovqi Djurayevich	
THE ROLE OF ENVIRONMENTAL FACTORS IN THE COURSE OF ACUTE RHEUMATIC FEVER IN CHILDREN.....	1516
Kuldashev Sardor Furqatovich	
MOLIYAVIY INKLYUZIYA DARAJASINI BAHOLASHNING AXBOROT TIZIMI ASOSIDA MONITORING MEXANIZMLARINI SHAKLLANTIRISHNING ILMIY-USLUBIY ASOSLARI.....	1520
Adashaliyev Baxtiyorjon Valisher o'g'li	
EKSPORT SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA INNOVATSIYALARNING AHAMIYATI	1527
Sobirova Muxlisa	
MAHALLIY BUDJETLAR MUSTAQILLIGINI TA'MINLASHDA SOLIQ TUSHUMLARI VA TRANSFERTLAR NISBATINI OPTIMALLASHTIRISH.....	1531
Muxitdinov Sidikxo'ja Akobirxo'ja o'g'li	
BANK TIZIMI ORQALI YASHIL MOLIYANI RIVOJLANTIRISH: GREEN ADVISORY SERVICES XIZMATLARINING ZAMONAVIY AMALIYOTI.....	1537
Abdumutalova Gulrux Shuxratjon qizi	
ISLOMIY MOLIYA VA RAQAMLI BANK EKOTIZIMLARINING INTEGRATSIYASINING O'ZBEKISTONDAGI ISTIQBOLLARI	1544
Galatov Abbos Alibekovich	
AGROSERVIS XIZMATLARINI TAKOMILLASHTIRISH ORQALI KAMBAG'ALLIKNI QISQARTIRISHNING STRATEGIK YO'NALISHLARI.....	1551
Abilov Feruz Nematullayevich	
TRANSFORMATSIYALASH JARAYONIDA TIJORAT BANKLARI KREDITLARI AMALIYOTI BILAN BOG'LIQ MUAMMOLAR VA ULARNI KAMAYTIRISH YO'LLARI	1554
Jabbarov Nodir Umirovich	
OLIY TA'LIM MALAKALARINI XALQARO TAN OLIISHNING INSTITUTSIONAL MEXANIZMLARI: BOLONYA JARAYONI VA YUNESKO GLOBAL KONVENSIYASI QIYOSIY TAHLILI	1559
Saidov Muxammad Ali Hakimovich, Iminoxunov Abduqahhor Abduvohidovich	
IQTISODIY O'SISHNING NAZARIY ASOSLARI VA UNI BELGILOVCHI OMILLAR TAHLILI.....	1563
G'ulomjan Matkarimov	
O'ZBEKISTONDA MUZEY TURIZMINI RIVOJLANTIRISHNING KONSEPTUAL YO'NALISHLARI.....	1568
Yulduz Urinbayeva	
DEVELOPMENT OF A METHODOLOGY FOR THE DIGITALIZATION OF TANGIBLE TECHNICAL ASSET INVENTORY IN THE DIGITAL ECONOMY.....	1573
Izzatilla Pulatov Quدراتillayevich	
THE IMPACT OF NATIONAL ECONOMY COMPETITIVENESS ON ECONOMIC GROWTH	1581
Siddikov Askar Axrorovich, Turapov Siroj Mamadoli o'g'li	



TIJORAT BANKLARI TOMONIDAN AGRAR SEKTORNI MOLIYALASHTIRISH TIZIMI TAKOMILLASHTIRISH YO'NASHISHLARI	1585
Azizov Shuxrat Maxmutovich	
SUN'IY INTELLEKT TEXNOLOGIYALARINI O'QITISHGA QARATILGAN LOYIHALARINI MOLIYALASHTIRISH MEXANIZMLARI VA ULARNING SAMARADORLIK TAHLILI.....	1593
Rapiyev Alisher Parda o'g'li, Toshboyev Ikrom O'ktamovich	
MINTAQALARNI BARQAROR RIVOJLANTIRISHDA TADBIRKORLIK SALOHİYATI AHAMIYATINING ILMIY-NAZARIY JIHATLARI	1597
Madaminov Damir Abduraxmanovich	
АБСОРБЦИОННАЯ СПОСОБНОСТЬ И ПРОИЗВОДИТЕЛЬНОСТЬ ТРУДА: МЕТОДОЛОГИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ МЕЖСТРАНОВОГО АНАЛИЗА	1602
Султанова Л.Ш.	
KADRLAR MENEJMENTIDA MOTIVATSIYA TIZIMLARINI TAKOMILLASHTIRISH	1607
Latipov Ashur Ali Rustam o'g'li, Xakimov Damir Ulug'bekovich	
RAQAMLI IQTISODIYOTNING RIVOJLANISHI VA MILLIY IQTISODIY STRATEGIYAGA TA'SIRI	1612
Artikova Shoxida Ilyasovna, Xakimov Damir Ulug'bekovich	
"YASHIL" IQTISODIYOT TAMOIYILLARI ASOSIDA BARQAROR IQTISODIY O'SISHNI TA'MINLASH YO'LLARI	1616
Rustamov Narzillo Istamovich	
KATTA HAJMDAGI MA'LUMOTLAR (BIG DATA) ORQALI EKOLOGIK VA IQTISODIY JARAYONLARNI OPTIMALLASHTIRISH.....	1621
Mullajonova Fotima Tuychibayevna	
ТОРГОВЫЙ БАЛАНС МЕЖДУ УЗБЕКИСТАНОМ И КИТАЕМ И ЕГО ВЛИЯНИЕ НА ЭКОНОМИКУ: АНАЛИЗ ОТРАСЛЕЙ ПРОМЫШЛЕННОСТИ	1627
He Xiaogu, Уркинбаев Т. А.	
РЕЙТИНГОВАЯ ОЦЕНКА ЭКОЛОГИЧЕСКИХ АСПЕКТОВ ДЛЯ ДАЛЬНЕЙШЕГО РАЗВИТИЯ «ЗЕЛЕННОЙ» ЭНЕРГЕТИКИ В УЗБЕКИСТАНЕ.....	1632
Тураева Сурия	
HUDUDLARNI IJTIMOY-IQTISODIY RIVOJLANTIRISHDA ERKIN IQTISODIY HUDUDLARNING O'RNI	1641
N. Tursunov	
ВНЕДРЕНИЕ ИНСТРУМЕНТОВ НЕЙРОМАРКЕТИНГА В В2В- И В2С-СЕКТОРАХ ПЛОДООВОЩНОЙ ИНДУСТРИИ.....	1646
Садий Шукрилло Асатилло угли	
ЭФФЕКТИВНОСТЬ ВНЕШНЕЭКОНОМИЧЕСКОЙ ПОЛИТИКИ В ПРИВЛЕЧЕНИИ ИНОСТРАННЫХ ИНВЕСТИЦИЙ	1653
Qian Xuanhong, Вохидова Мехри	
MAHALLALARDA TADBIRKORLIKNI RIVOJLANTIRISH — KAMBAG'ALLIKNI QISQARTIRISHNING MUHIM OMILI SIFATIDA.....	1659
Xolmuratov Salimbek Eshbekovich	
DAVLAT QARZLARINI BOSHQARISHNI TAKOMILLASHTIRISH	1663
Valiyeva Gulxayyo, Samandarova Gulmira	
YASHIL TURIZMNING MOHIYATI VA UNI TASHKIL ETISHNING NAZARIY ASOSLARI.....	1666
Qurbanbayev Shuhrat Bakberganovich	
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI SHAROITIDA ISLON BANKLARINI RIVOJLANTIRISH YO'LLARI.....	1670
S. Sayfullayev	
IT LOYIHALARINI BOSHQARISHNING TASHKILIY JIHATLARI	1675
Mansurova Bibinur Miyirbek Qizi	
O'ZBEKISTONNING INVESTITSIYA SIYOSATI VA UNI TAKOMILLASHTIRISH YO'NALISHLARI.....	1679
Babaeva Nargiza Muzafarovna	
KAMBAG'ALLIKNI QISQARTIRISH DASTURLARINI BAJARILISHIDA MOLIYAVIY SIYOSAT DOIRASIDA MOLIYAVIY DASTAKLARDAN FOYDALANISHDAGI TENDENSIYALAR TAHLILI	1686
Mirzaxalikov Bobir Baxtiyorovich	



KICHIK SANOAT ZONALARI FAOLIYAT SAMARADORLIGINI OSHIRISH IMKONIYATLARI	1692
Mullajanov Iskandar Tadjibayevich	
TURIZM SOHASIDA MARKETING KOMMUNIKATSIYALARI VA KONTENT MARKETINGNING O'RNI	1697
Bozorov Samar Safarovich	
JANUBIY KOREYADA TIBBIY TURIZMNING SHAKLLANISHI VA RIVOJLANISH TAJRIBASI	1702
Azizova Nazira To'xtayevna	
MINTAQADA EKOLOGIK XAVFSIZLIKNI TA'MINLASHNING TASHKILY-IQTISODIY MEXANIZMI TAHLILI	1708
Odilov Xamidillo Maxmudjon o'g'li	
"IMPROVEMENT OF ECONOMIC MECHANISMS FOR ENSURING RESOURCE ECONOMY IN THE FIELD OF COTTON GROWING IN THE AGRARIAN SECTOR.....	1715
Mirzaev Batir, Djumabaeva Nurzada Torebekovna	
TRANSCHEGARAVIY ELEKTRON TIJORATDA BOJXONA TO'LOVLARI HISOB VA AUDITINI TAKOMILLASHTIRISHNING AYRIM MASALALARI.....	1719
Makkamov Zokirjon Xusanboyevich	
TO'SIQSIZ TURIZMNING XUSUSIYATLARI VA UNI RIVOJLANTIRISH OMILLARI.....	1723
Umurzakova D. E.	
СОЦИАЛЬНО-ЭКОНОМИЧЕСКИЕ И ИНСТИТУЦИОНАЛЬНЫЕ ФАКТОРЫ ФОРМИРОВАНИЯ ОРГАНИЗАЦИОННО-ЭКОНОМИЧЕСКОГО МЕХАНИЗМА РАЗВИТИЯ МІСЕ-ТУРИЗМА В УЗБЕКИСТАНЕ	1729
Нарзуллаева Фариза Акмалевна	
MEVA-SABZAVOTCHILIK TARMOG'I – MILLIY IQTISODIYOTNING ASOSIY BO'G'INI SIFATIDA.....	1734
Israilova Xikoyat Musakulovna	
DAVR XARAJATLARI HISOB VA TAHLILI	1739
Sh.M. Ergashev	
KORXONALAR FAOLIYATI SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH	1744
Nosirov Sardor Xolmirzayevich	
THE ROLE OF DIGITAL CURRENCY IN ATTRACTING INVESTMENT.....	1750
Malikov Numonjon Kamalovich, Azimov Khumoyun Khamid ugli, Pardayev Khusniddin Jakhongir ugli	
QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASI QISHLOQ JOYLARI AHOLISI MEHNAT SALOHİYATIDAN FOYDALANISH IMKONIYATLARINI BAHOLASH	1758
Amaniyazova Rayxan Bayniyazovna	
SANOATNI MILLIY IQTISODIYOTDAGI O'RNI VA UNI INNOVATSION RIVOJLANTIRISH YO'NALISHLARI	1762
Raxmatullayev Doston Asad o'g'li	
ОЦЕНКА ЭФФЕКТИВНОСТИ ФИНАНСОВОГО УПРАВЛЕНИЯ ПРЕДПРИЯТИЕМ НА ОСНОВЕ КОМПЛЕКСНЫХ ПОКАЗАТЕЛЕЙ УПРАВЛЕНЧЕСКОГО АНАЛИЗА.....	1766
Минутдинова Лилия Тагировна	
FUQAROLIK JURNALISTIKASINING GENDER JIHATLARI: XORIJIY AMALIYOTNING TAHLILI	1771
Zakirova Oisha Vohid qizi	
MINTAQA IQTISODIYOTINING BARQAROR RIVOJLANISHIDA SANOAT KORXONALARI SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING IQTISODIY MEXANIZMLARI.....	1776
Jalolova Muazzamxon Akbarjonovna	
ФОРМИРОВАНИЕ ФИНТЕХ-ЭКОСИСТЕМЫ В УЗБЕКИСТАНЕ В УСЛОВИЯХ ЦИФРОВИЗАЦИИ НАЦИОНАЛЬНОГО РЫНКА.....	1780
Шамахмудова Шоира Олег кизи	
INNOVATSION LOYIHALARNI MOLİYALASHTIRISHNING ZAMONAVIY USULLARI: MUAMMO VA YECHIMLAR.....	1786
Rafiyeva Zarina Husanovna	
ВЛИЯНИЕ ЭКОЛОГИЧЕСКИХ ФАКТОРОВ В ЗЕЛЕННОЙ ЭКОНОМИКЕ НА ЗАНЯТОСТЬ НАСЕЛЕНИЯ В УЗБЕКИСТАНЕ	1790
Акбарова Малика Ильхомовна	



INVESTITSION FAOLLIK VA JOZIBADORLIK KO'RSATKICHLARINI TAHLIL QILISH YO'NALISHLARI	1798
O'razaliyev Javlonbek O'rinboyevich	
ENVIRONMENTAL FACTORS CONTRIBUTING TO THE INCREASE IN CHRONIC RHEUMATIC DISEASES IN CHILDREN	1802
Kuldashv Sardor Furkatovich, Alpykarov Bakhodir Khudayberdiyevich, Umarova Khadicha Abdullayevna	
ФОРМИРОВАНИЕ КОНКУРЕНТНЫХ ПРЕИМУЩЕСТВ ТОВАРНОГО БРЕНДА В ЦИФРОВОЙ СРЕДЕ НА ОСНОВЕ НЕЙРОМАРКЕТИНГОВЫХ ИНСТРУМЕНТОВ (НА ПРИМЕРЕ QAND).....	1807
Юлдашев Жамшид Аббарович, Эрмуратова Камила Мисир кизи	
ISHLAB CHIQRARISH XARAJATLARINING BOZOR MUNOSOBATLARI SHAROITIDA O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARINING TAHLILI	1816
Turebekov Anvarbek Adilbekovich	
SHAHAR VA TUMANLARDA INKLYUZIV RIVOJLANISH MEKANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH.....	1822
Xamroqulov M.J.	
O'ZBEKISTONDA VA G'ARB MAMLAKATLARIDA XAYRIYA YONDASHUVLARI: IJTIMOY, IQTISODIY VA SHAHSIY OMILLARNING QIYOSIY NAZARIY VA EMPIRIK TAHLILI.....	1826
Azimjon Musamuxamedov	
AHOLINI IJTIMOY QO'LLAB-QUVVATLASHDA MOLIVAVIY RESURLARDAN SAMARALI FOYDALANISH YO'LLARI	1832
Zoya Xalekeyeva, Jamgirbaeva Nilufar Dauilbay qizi	
ЭКОНОМИКА ТРУДА И УПРАВЛЕНИЕ ПЕРСОНАЛОМ HR В ВЫСШИХ УЧЕБНЫХ ЗАВЕДЕНИЯХ	1837
Амирджанова Ситора Суннат кизи, Шаюсупова Наргиза Тургуновна, Исомухаммедов Исроил Исомухаммад ўғли, Маматкулов Ҳумоюн Бобир ўғли	
INVESTITSIYALARNI JALB QILISHNING ASOSIY MEKANIZMLARI VA USULLARI	1843
Jumaqulov Ozodbek Shuhrat o'g'li	
ПУТИ СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ ОБРАЗОВАТЕЛЬНОЙ СИСТЕМЫ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН НА ОСНОВЕ ПРИМЕНЕНИЯ «ФИНСКОГО ЧУДА»: АНАЛИЗ БАРЬЕРОВ ВНЕДРЕНИЯ И ПУТИ ИХ УСТРАНЕНИЯ.....	1847
Холмуратов Джахонгир Салимбек угли	
O'ZBEKISTONDA YALPI OMILLAR SAMARADORLIGIGA TA'SIR ETUVCHI IQTISODIY VA INSTITUTIONAL OMILLAR TAHLILI	1854
Djalilov Dostonbek Abduazizovich	
СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ ФИНАНСИРОВАНИЯ ЖИЛИЩНОГО СТРОИТЕЛЬСТВА В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН	1859
Жаксымуратов Казбек Раджович, Кощанова Сахибжамал Бахытбаевна	
YASHIL IQTISODIYOT SHAROITIDA SOLIQ SIYOSATINING TRANSFORMATSIYASI: XORIJ TAJRIBASI.....	1865
Roza Xudayberganova	
RAQAMLI BANK XIZMATLARI ASOSIDA YASHIL MOLIVAVIY MAHSULOTLARNI KENGAYTIRISH ISTIQBOLLARI	1871
Kuvotova Dilnora Kaxramonovna	
КРЕАТИВНЫЕ ИНДУСТРИИ КАК ДРАЙВЕР ИННОВАЦИОННОГО РОСТА ЭКОНОМИКИ	1876
Бекимбетова Гулнора Маратовна	
MINTAQA IQTISODIYOTI RIVOJLANISHIDA INVESTITSION JARAYONLARNING TA'SIRI DINAMIKASINI IQTISODIY-STATISTIK TAHLILI	1882
Mahmudov Tursunpo'lat Davronovich	
QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASI SHAROITIDA SEDANA (NIGELLA SATIVA L.) YETISHTIRISHNING IQTISODIY SAMARADORLIGI	1889
Umurzakova Nargiza Maksetbay qizi	
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA INFLYATSIYANI JILOVLASH VA BARQAROR NARX SHAKLLANTIRISH MEKANIZIMLARI	1894
Abdullayev Habibullo, Burhonova Gulnoza Kadam qizi	



ICHKI ISHLAR ORGANLARIDA IJRO INTIZOMINI MUSTAHKAMLASHNING KONSTITUTSIYAVIY KAFOLATLARI.....	1899
E.U. Azizov, X.D. Sarabekov	
INNOVATSION RIVOJLANISH SHAROITIDA TURIZM SALOHİYATIDAN FOYDALANISH JARAYONLARINI TAKKOMILLASHTIRISH YO'LLARI.....	1905
Sharipov Baxtiyor Mixlibayevich, Isayeva Nargiza Xamidovna	
BANK FAOLIYATI SAMARADORLIGINI OSHIRISH YO'LLARI.....	1910
Kasimov Baxtiyor Usmanovich	
XORAZM VILOYATI IQTISODIYOTINI RIVOJLANTIRISHDA XORIJIY INVESTITSİYALARDAN SAMARALI FOYDALANISH TAHLILI.....	1914
Matniyazova Iqboloy Baxramovna	
BUZILGAN YERLARNI REKULTIVASIYA QILISH.....	1920
G'ayrat Aminovich Muxamedov	
QUM HUDUDLARIDAGI HUDUDIY-ISHLAB CHIQRISH MAJMUALARIDAGI TARMOQLARARO TASHQI TA'SIRLAR.....	1925
G'ayrat Aminovich Muxamedov	
INNOVATSION IQTISODIYOT SHAROITIDA TURIZM FAOLIYATINI BOSHQARISH.....	1931
Ismailov Muhammadali Avdumumin o'g'li	
O'ZBEKISTONDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNING BANDLIKKA TA'SIRI: EMPIRIK TAHLIL.....	1938
Sobirov Baxtiyor Karimjon o'g'li	
СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ МЕХАНИЗМОВ РАЗВИТИЯ ЗЕРНОВОГО ПРОИЗВОДСТВА В ПРОМЫШЛЕННОЙ СРЕДЕ.....	1944
Аъзамкулов Нурбек	
BARQAROR IQTISODIY O'SISHNI TA'MINLASHDA BUDJET DAROMADLARINING AHAMIYATI.....	1948
Yaxshimuratova Xasiyat Xudaybergenovna	
KICHIK SANOAT KORXONALARIDA TEXNOLOGIK MODERNIZATSIYA QASHQADARYO TAJRIBASI.....	1952
Sultanov Dilshod	
UY XO'JALIKLARIDA CHORVACHILIK MAHSULOTLARINI YETISHTIRISHNI MOLIYALASHTIRISH MEKANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH OMILLARI.....	1955
Odilov Umid Abduxalimovich	
ЗЕЛЕНАЯ ЭКОНОМИКА И УСТОЙЧИВЫЕ ИНВЕСТИЦИИ: ТЕНДЕНЦИИ И ПЕРСПЕКТИВЫ.....	1963
Абдувалиева Зилола Абдуллаевна, Барно Нурмухамедова Исмаиловна	
EGILUVCHI TEMIR-BETON ELEMENTLARNING KUCHLANGANLIK-DEFORMATSIYALANUVCHANLIK HOLATIDA BETON DEFORMATSIYASINI HISOBGA OLISH.....	1970
Xolmirzaev Sattar Abdujabbarovich	
KORXONANING RAQOBAT USTUNLIGINI TA'MINLASHDA BOZOR SEGMENTATSIYASI STRATEGIYALARINING O'RNI.....	1976
Tursunxo'jayev Axrorxo'ja Jamoliddin o'g'li	
SMART TEXNOLOGIYALARNING OZIQ-OVQAT MAHSULOTLARINI ISHLAB CHIQRISHGA TA'SIRI.....	1983
Axmedova Nafisa Amiriddin qizi	
SOLIQ TIZIMIDA NEFT-GAZ SANOATI KORXONALARINI SOLIQQA TORTISHDAGI MUOMMOLAR.....	1989
Jabborov Mashrab Ismoil o'g'li	
UZUMCHILIKNI RIVOJLANTIRISHDA KLASSTER TIZIMINING AHAMIYATI.....	1993
Karimova Nilufar Sadriddin qizi	
SOLIQ ORGANLARINING SOLIQ TO'LOVCHILAR BILAN HAMKORLIGI.....	1997
Yuldashev Yashnarjon Xolmirzaevich	
XO'JALIK YURITUVCHI SUBYEKTLARDA ISHLAB CHIQRISH XARA JATLARINING STRATEGIK BOSHQARUV HISOBINI TASHKIL QILISH YO'NALISHLARI.....	2001
Normatova Gulmira Xayrullayevna	
ACTIVITIES OF FREE ECONOMIC ZONES IN UZBEKISTAN.....	2007
Mamadiyev Elyor Akmalovich, Kongratbay Avezimbetovich Sharipov	



МИНЕРАЛЬНО-СЫРЬЕВЫЕ РЕСУРСЫ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН ДЛЯ ПРОИЗВОДСТВА ЭЛЕКТРОДНЫХ ПОКРЫТИЙ ЭЛЕКТРОДОВ ДЛЯ ИЗНОСОСТОЙКОЙ НАПЛАВКИ	2012
Садыков Жахонгир Насырджанович	
TOVAR-MODDIY RESURLAR HARAKATINI SAMARALI FOYDALANISH METODOLOGIYASI VA UNI ISHLAB CHIQISH BOSQICHLARI.....	2016
Pardayev Sherzod Xolmurodovich, Baxromov Bekzod Yusuf o'g'li	
ECONOMIC DIPLOMACY AND INVESTMENT RELATIONS BETWEEN THE REPUBLIC OF KOREA AND VIETNAM	2021
Abdusalomov Samandar Azizbek o'g'li, G'aniyev Zafarbek Ikrom o'g'li, Malikov Nu'monjon Kamalovich	
MINTAQQA IQTISODIY RIVOJLANISH DINAMIKASINI INTEGRATSIYALASHGAN SUBYEKTLAR MODELI	2028
Qodirov Farrux Ergash o'g'li	
RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA SOLIQ TEKSHIRUVLARI TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH	2034
To'rayev Shavkat Shuxratovich	
UY BIZNESI FAOLIYATINI TASHKIL ETISH VA RIVOJLANTIRISH MEXANIZMLARI	2038
Ziyodullayev Navruzбек Botir o'g'li	
TIJORAT BANKLARIDA INNOVATSION BANK XIZMATLARINI RIVOJLANTIRISHNING NAZARIY-METODOLOGIK ASOSLARI	2043
Nuriddinov Ziyovuddinxon Zuxriddin o'g'li	
QURILISH MATERIALLARI SANOATIDA ISHLAB CHIQARISHNI SIFAT MENEJMENTI TAMOYILLARI ASOSIDA TASHKIL ETISHNING METODOLOGIK JIHATLARI	2050
Achilov Ilmurad Nematovich	
FERMER XO'JALIKLARIDA RAQAMLI MARKETINGNI QO'LLASHNING AMALIY JIHATLARI (QASHQADARYO VILOYATI MISOLIDA)	2055
Nazarova Gulrux Umarjonovna	
KICHIK KORXONALARNING INNOVATSION FAOLLIQI VA RAQOBATBARDOSHLIGI: RIVOJLANAYOTGAN IQTISODIYOTLAR MISOLIDA.....	2059
Otabek Azamatov Quyosh o'g'li	
КЛАСТЕР КАК МЕХАНИЗМ НАУЧНО-ПРОИЗВОДСТВЕННОЙ ИНТЕГРАЦИИ В ВЫСШИХ УЧЕБНЫХ ЗАВЕДЕНИЯХ	2063
Раджабова Гавхархон Умаровна	
TIBBIY XIZMATLAR BOZORI SAMARADORLIGI VA AHOLI SALOMATLIGINI TA'MINLASH MASALALARI	2068
Sayitbayev Shermirza Datkamirzayevich	
YERLARDAN SAMARALI FOYDALANISHDA YER SOLIG'INING O'RNI VA AHAMIYATI	2073
Sh. J. Mamadjanov	
BO'LAJAK MARKETOLOGLARINING KASBIY KO'NIKMALARINI OSHIRISHNING XULQ-ATVOR VA PSIXOLOGIK JIHATLARI	2076
Kamoliddin Mamatqulovich Ibodov	
SANOAT SOHASIDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNI JORIY ETISHNING ZAMONAVIY TENDENSIYALARI.....	2082
Vaydullayev Ilyos Hamidulla o'g'li	
TIJORAT BANKLARINING MOLIYAVIY KO'RSATKICHLARI ASOSIDA MUAMMOLI KREDITLAR ULUSHINI (NPL) EKONOMETRIK MODELLASHTIRISH: PANEL MA'LUMOTLAR TAHLILI	2087
Ishniyazov Baxrom Normamatovich, Xurramov Eldor	
FARMASEVTIKA KORXONALARIDA SOTISH XARAJATLARI BUXGALTERIYA HISOBINI TAKOMILLASHTIRISH.....	2093
Xudaynazarova Dilnoza Gafurovna	
OLIY TA'LIM MUASSASALARI ILMIY-TADQIQOT VA INNOVATSION FAOLIYATI SAMARADORLIGIGA TA'SIR ETUVCHI OMILLAR TAHLILI.....	2098
Djabbarova Zilola Saburovna	
MINTAQADA OZIYQ-OVQAT MAHSULOTLARI TA'MINOT ZANJIRINI OPTIMAL TARTIBGA SOLISHNING O'ZIGA XOS JIHATLARI.....	2104
Bekjanov Dilmurad Yo'ldashovich	



DUNYO MAMLAKATLARINING ASOSIY IQTISODIY O'SISH OMILLARI VA SO'NGGI YILLARDA O'ZBEKISTON RESPUBLIKASINING ASOSIY MAKROIQTISODIY KO'RSATKICHLARINING IQTISODIY O'SISHGA TA'SIRI TAHLILI.....	2109
Rasulov Jamshid Shokir o'g'li	
APPLICATION OF MARKETING RESEARCH IN GREEN TOURISM REGIONS.....	2114
K.A. Musakhanov	
ПЕРСПЕКТИВЫ РАЗВИТИЯ ФИНАНСОВЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В УСЛОВИЯХ РЕФОРМИРОВАНИЯ ФИНАНСОВОГО РЫНКА УЗБЕКИСТАНА.....	2119
Хайдарова Нигинахон Шухрат кизи	
JAHONDA BANK XIZMATLARI BOZORIDA RAQAMLASHTIRISH JARAYONLARI VA RAQOBATNI RIVOJLANTIRISHNING ASOSIY YO'NALISHLARI.....	2123
Ortiqov O. A.	
MINTAQANI BARQAROR RIVOJLANTIRISHDA SOLIQ TIZIMINING O'RNI VA AHAMIYATI.....	2130
Eshniyazova Yulduz Yuldashbayevna	
TA'LIM XIZMATLARI UCHUN JISMONIY SHAXSLARDAN OLINADIGAN DAROMAD SOLIG'I BO'YICHA IMTIYOZ QO'LLANILISHI MASALALARI.....	2134
Matrasulov Bahodir Erbutaevich, Chorshanbayev Umurzoq Qaynarovich	
SUN'IY INTELLEKT TEXNOLOGIYALARINING MOLIVAVIY RISK BOSHQARUVIDAGI XALQARO VA MILLIY AMALIYOTI	2138
Abdiyev Otabek Botiraliyevich	
PAXTA-TO'QIMACHILIK KLASSTERLARIDA ISHLAB CHIQARISH ZAHIRALARINI BOSHQARISHNING XORIJIY TAJRIBALARI	2145
Nasimov Baxtiyor Vasiyevich	
YAKKA TARTIBDAGI TADBIRKORLARNI SOLIQQA TORTISHDAGI MUAMMOLAR VA ULARNI BARTARAF ETISH YO'LLARI.....	2153
Mahmadazizov Eldorjon Marifjon o'g'li	
KICHIK IQTISODIY ZONALARNING XORIJIY TAJRIBALARI VA ULARNI O'ZBEKISTON SHAROITIDA QO'LLASH IMKONIYATLARI	2157
Tursunov Sanjar Baxtiyarovich	
ПРОМЫШЛЕННЫЙ ТУРИЗМ В УЗБЕКИСТАНА: ПОТЕНЦИАЛ, ПРЕДПОЧТЕНИЯ И ПРОФИОРИЕНТАЦИОННЫЕ ПЕРСПЕКТИВЫ	2160
Гольшева Елена Вячеславовна, Адылова Диёра Улугбековна	
IQTISODIY TARMOQLARNI RIVOJLANTIRISHDA INVESTITIYA JALB QILISHNING MEKANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH.....	2170
Muhammadjonov Bobirmirzo Botirjon o'g'li	
TA'LIM MENEJMENTIDA MOLIVAVIY XATAR TUSHUNCHASI.....	2174
Pulatova M.B., A.T.Saldarbekov	
KICHIK BIZNES SOHASINING IQTISODIY SAMARADORLIGINI IFODALOVCHI STATISTIK KO'RSATKICHLARNI BAHOLASH	2179
Arzikulov Otabek Ali o'g'li	
HUDUDLARNING TURIZM SANOATINI RIVOJLANTIRISHDA MAHALLIY AHOLINING YASHIL TURIZMDA ISHTIROKINI KENGAYTIRISH STRATEGIYALARI	2187
Hafizov Abdulla Olimjonovich	
O'ZBEKISTON HUDUDLARIDA ELEKTRON CHAKANA SAVDONING KENGAYISHI VA UNING ISTE'MOL TOVARLAR BOZORI RIVOJLANISHIDAGI ROLI	2193
Abdirashidov Ashirali	
O'ZBEKISTONDA SIFATLI IQTISODIY O'SISHNING MUAMMO VA ISTIQBOLLARI.....	2199
Pulatova Moxigul	
QISHLOQ XO'JALIGI MAHSULOTLARI BOZORINING RIVOJLANISH XUSUSIYATLARI VA INFRATUZILMANI SHAKLLANTIRISHNING MUAMMOLI MASALALARI	2205
Hudayberdiyev Furqat Imomnazar o'g'li	
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA OILAVIY TADBIRKORLIK FAOLIYATINI MOLIVALASHTIRISHNI STATISTIK TAHLILI	2211
Sayfullayev Siddik Nosirovich, Valiev Xayrulla Ismatullaevich	



HUDUDiy MOLIYA BOSHqARUVIDA G'AZNACHILIK XIZMATINING NAZORAT VA TARTIBGA SOLISH MEXANIZMLARI.....	2217
Tangriyeva Farida Abdukarimovna	



HUDUDIIY MOLIYA BOSHQARUVIDA G'AZNACHILIK XIZMATINING NAZORAT VA TARTIBGA SOLISH MEXANIZMLARI

Tangriyeva Farida Abdulkarimovna

Magistr

Toshkent shahar G'aznachilik xizmati boshqarmasi

Yangiayot tumani G'aznachilik xizmati bo'limi

Yuridik majburiyatlarni ro'yxatga olish bo'yicha bosh mutaxassiss

ftangriyeva@mail.ru

Annotatsiya. Mazkur maqolada hududiy moliya boshqaruvi tizimida g'aznachilik xizmatining nazorat va tartibga solish mexanizmlarining tutgan o'rni ilmiy jihatdan tahlil qilinadi. Tadqiqotda hududiy budjet ijrosi jarayonida g'aznachilik orqali amalga oshiriladigan dastlabki va joriy moliyaviy nazorat, kassa ijrosi hamda budjet mablag'larini tartibga solish mexanizmlarining samaradorligi baholanadi. O'rganish natijalari g'aznachilik tizimi hududiy darajada moliyaviy intizomni mustahkamlash, shaffoflik va hisobdorlikni oshirishda muhim institutsional mexanizm ekanligini ko'rsatadi.

Kalit so'zlar: hududiy moliya boshqaruvi, g'aznachilik xizmati, budjet ijrosi, moliyaviy nazorat, tartibga solish mexanizmlari, budjet intizomi.

Abstract. This article provides a scientific analysis of the role and significance of control and regulatory mechanisms of the treasury service within the system of regional financial management. The study examines preliminary and current financial control, budget execution, and regulatory mechanisms for managing budgetary funds at the regional level. The findings indicate that the treasury system plays a crucial role in strengthening financial discipline, transparency, and accountability in regional budget management.

Key words: regional financial management, treasury service, budget execution, financial control, regulatory mechanisms, budget discipline.

Аннотация. В статье проводится научный анализ роли и значения механизмов контроля и регулирования казначейской службы в системе регионального управления финансами. В исследовании рассматриваются предварительный и текущий финансовый контроль, кассовое исполнение бюджета, а также механизмы регулирования бюджетных средств на региональном уровне. Результаты анализа свидетельствуют о том, что казначейская система играет ключевую роль в обеспечении финансовой дисциплины, прозрачности и подотчетности региональных бюджетов.

Ключевые слова: региональное управление финансами, казначейская служба, исполнение бюджета, финансовый контроль, механизмы регулирования, бюджетная дисциплина.

KIRISH

Bozor iqtisodiyoti sharoitida davlat moliyasini samarali boshqarish masalasi milliy va hududiy darajada ijtimoiy-iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashning muhim omillaridan biri hisoblanadi. Ayniqsa, hududiy budjetlar orqali moliyalashtiriladigan ijtimoiy soha, infratuzilma va hududiy rivojlanish dasturlarining hajmi kengayib borayotgan hozirgi sharoitda moliyaviy resurslardan oqilona va maqsadli foydalanish ustidan nazoratni kuchaytirish zarurati ortib bormoqda. Shu nuqtayi nazardan, g'aznachilik tizimi hududiy moliya boshqaruvida asosiy institutsional mexanizm sifatida alohida ahamiyat kasb etadi.

G'aznachilik xizmati budjet mablag'larining harakatini yagona hisob orqali amalga oshirish, budjet intizomini mustahkamlash, xarajatlarning qonuniyligi va maqsadlilikini ta'minlash hamda moliyaviy intizom buzilishlarining oldini olishga xizmat qiladi. Hududiy darajada g'aznachilik orqali amalga oshiriladigan dastlabki va joriy moliyaviy nazorat mexanizmlari budjet mablag'larining samarasiz sarflanishi, kechiktirilgan to'lovlar hamda moliyaviy risklarning kamayishiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Shu bilan birga, g'aznachilik xizmatining tartibga solish funksiyasi hududiy budjet ijrosining muvozanatli va barqaror yuritilishini ta'minlashda muhim rol o'ynaydi.



Mazkur mavzuning dolzarbligi, avvalo, hududlar moliyaviy mustaqilligining bosqichma-bosqich kengayib borayotgani, budget vakolatlarining quyi bo'g'inlarga o'tkazilayotgani hamda natijadorlikka yo'naltirilgan budgetlash tamoyillarining joriy etilayotgani bilan izohlanadi. Bunday sharoitda g'aznachilik xizmatining nazorat va tartibga solish mexanizmlarini takomillashtirish hududiy moliya boshqaruvida shaffoflikni oshirish, mas'uliyatni kuchaytirish va moliyaviy barqarorlikni ta'minlashning muhim sharti sifatida namoyon bo'lmoqda.

Shu bois, hududiy moliya boshqaruvida g'aznachilik xizmatining nazorat va tartibga solish mexanizmlarini ilmiy jihatdan tahlil qilish, ularning amaldagi holatini baholash hamda samaradorligini oshirishga qaratilgan taklif va xulosalarni ishlab chiqish bugungi kunda dolzarb ilmiy-amaliy masalalardan biri hisoblanadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Hududiy moliya boshqaruvi tizimida g'aznachilik xizmatining o'rni va ahamiyati jamoat moliyasini boshqarish nazariyasi doirasida keng yoritilgan. Carole Pretorius va Nico Pretorius jamoat moliyasini boshqarish islohotlariga bag'ishlangan tadqiqotlarida g'aznachilik tizimini budget jarayonining markaziy institutsional elementi sifatida talqin qiladi. Mualliflar fikricha, g'aznachilik xizmatining samarali faoliyati budget mablag'larini rejalashtirish, ijro etish va nazorat qilish jarayonlari o'rtasida uzviy bog'liqlikni ta'minlaydi hamda hududiy moliya boshqaruvida shaffoflik va hisobdorlikni kuchaytiradi [1].

G'aznachilik xizmatining nazorat va tartibga solish mexanizmlari masalasi xalqaro moliyaviy institutlar tadqiqotlarida alohida o'rin egallaydi. International Monetary Fund ekspertlari g'aznachilikning yagona hisobi konsepsiyasini davlat moliyaviy resurslarini markazlashgan holda boshqarishning samarali modeli sifatida baholab, ushbu mexanizm orqali budget intizomini mustahkamlash va hududiy darajada moliyaviy risklarni kamaytirish mumkinligini asoslaydi. IMF tadqiqotlarida g'aznachilik tomonidan amalga oshiriladigan dastlabki va joriy nazorat mexanizmlari budget mablag'larining maqsadsiz sarflanishini oldini olishda muhim vosita sifatida ko'rsatiladi [2].

Davlat moliyasini boshqarishning institutsional jihatlarini OECD va SIGMA tomonidan tayyorlangan ilmiy-amaliy ishlarda chuqur tahlil qilingan. Ushbu tadqiqotlarda hududiy boshqaruv organlarida moliyaviy boshqaruv va nazorat tizimlarining samaradorligi normativ-huquqiy bazaning aniqligi, g'aznachilik tartib-taomillarining standartlashtirilganligi hamda hisobot berish mexanizmlarining shaffofligiga bog'liq ekanligi ta'kidlanadi. Mualliflar g'aznachilik xizmatini hududiy moliya boshqaruvida moliyaviy intizomni ta'minlovchi asosiy tartibga soluvchi institut sifatida baholaydi [3].

Hududiy darajadagi moliyaviy boshqaruv islohotlarining amaliy jihatlarini Monir Mir va Wahyu Sutyono tomonidan olib borilgan empirik tadqiqotlarda yoritilgan. Mualliflar Indoneziya mahalliy boshqaruv organlari misolida g'aznachilik nazoratining kuchsizligi moliyaviy hisobotlar sifatining pasayishiga va budget mablag'laridan samarasiz foydalanishga olib kelishini ko'rsatadi. Tadqiqot natijalariga ko'ra, g'aznachilik mexanizmlarini kuchaytirish hududiy moliya boshqaruvida moliyaviy shaffoflikni oshirishning muhim sharti hisoblanadi [4].

Jahon banki tadqiqotlarida rivojlanayotgan mamlakatlarda jamoat moliyasini boshqarish tizimining muammolari va ularni bartaraf etish mexanizmlari tahlil qilinadi. Ushbu ishlarda g'aznachilik xizmatining nazorat va tartibga solish funksiyalari hududiy budgetlar samaradorligini oshirish, davlat xarajatlarini optimallashtirish va fiskal barqarorlikni ta'minlashda muhim rol o'ynashi qayd etiladi. Jahon banki tadqiqotchilari g'aznachilik tizimini institutsional islohotlar markaziga qo'yishni tavsiya etadi [5].

Jamoat moliyasi va budget strategiyasi masalalarini tadqiq etgan Justin Marlowe ishlarida g'aznachilik xizmatining strategik boshqaruvdagi roli alohida ta'kidlanadi. Muallif g'aznachilikni faqat texnik to'lovlarni amalga oshiruvchi tuzilma sifatida emas, balki hududiy moliya siyosatini muvofiqlashtiruvchi va tartibga soluvchi muhim institut sifatida baholaydi. Uning fikricha, samarali g'aznachilik nazorati hududiy rivojlanish dasturlarining natijadorligini oshirishga xizmat qiladi [6].

Xalqaro tajribani umumlashtirgan Richard Allen, Richard Hemming va Barry Potter tomonidan tayyorlangan fundamental tadqiqotlarda g'aznachilik tizimi davlat moliyasini boshqarishning ajralmas qismi sifatida talqin qilinadi. Mualliflar g'aznachilik mexanizmlarining samarali ishlashi hududiy moliya boshqaruvida fiskal intizomni mustahkamlash, budget ijrosini real vaqt rejimida nazorat qilish va moliyaviy barqarorlikni ta'minlash imkonini berishini ilmiy asoslaydi [7].

Umuman olganda, tahlil qilingan adabiyotlar hududiy moliya boshqaruvida g'aznachilik xizmatining nazorat va tartibga solish mexanizmlari moliyaviy shaffoflik, hisobdorlik va budget intizomini ta'minlashda hal qiluvchi ahamiyatga ega ekanligini ko'rsatadi. Shu bilan birga, mavjud ilmiy tadqiqotlar g'aznachilik tizimini takomillashtirish hududiy budgetlar samaradorligini oshirishning muhim omili ekanligini tasdiqlaydi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqotda ma'lumotlar rasmiy statistik hisobotlar, normativ-huquqiy hujjatlar hamda xalqaro tashkilotlar va ilmiy manbalarda e'lon qilingan ochiq axborotlar asosida shakllantirildi. Olingan ma'lumotlar tizimli



tahlil, taqqoslash va mantiqiy umumlashtirish usullari orqali qayta ishlanib, g'aznachilik xizmatining nazorat va tartibga solish mexanizmlarining samaradorligi baholandi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Hududiy moliya boshqaruvi tizimi davlat moliyasini markazlashgan va nomarkazlashgan darajalarda samarali boshqarishni ta'minlovchi murakkab institutsional mexanizm hisoblanadi. Ushbu tizimda g'aznachilik xizmati hududiy budjetlar ijrosini tashkil etish, moliyaviy oqimlarni tartibga solish va mablag'lardan foydalanish ustidan nazoratni amalga oshirish orqali markaziy o'rin egallaydi. G'aznachilik mexanizmlarining samaradorligi hududlar moliyaviy barqarorligi, budjet intizomi hamda ijtimoiy-iqtisodiy dasturlarni moliyalashtirish natijadorligiga bevosita ta'sir ko'rsatadi.

Hududiy moliya boshqaruvida g'aznachilik xizmatining asosiy vazifalaridan biri budjet mablag'larining maqsadli va oqilona sarflanishini ta'minlashdan iborat. Bu vazifa, avvalo, dastlabki moliyaviy nazorat mexanizmlari orqali amalga oshiriladi. Dastlabki nazorat jarayonida xarajatlar smetalari, shartnomalar va to'lov hujjatlari belgilangan normativ-huquqiy talablarga muvofiqligi nuqtayi nazaridan tekshiriladi. Ushbu bosqichda g'aznachilik tomonidan amalga oshiriladigan tekshiruvlar budjet mablag'larining noqonuniy yoki maqsadsiz sarflanishining oldini olishga xizmat qiladi. Ayniqsa, hududiy darajada moliyaviy resurslarning cheklanganligi sharoitida dastlabki nazorat mexanizmlarining samarali ishlashi muhim ahamiyat kasb etadi.

G'aznachilik xizmatining nazorat mexanizmlaridan yana biri joriy moliyaviy nazorat hisoblanadi. Joriy nazorat budjet ijrosi jarayonida amalga oshirilib, to'lovlar va moliyaviy majburiyatlarning real vaqt rejimida monitoring qilinishini ta'minlaydi. Ushbu mexanizm hududiy budjetlarning kassa ijrosini barqaror yuritish, to'lov intizomini mustahkamlash va kechikkan to'lovlar ulushini kamaytirishga imkon beradi. Joriy nazorat orqali hududiy budjet tashkilotlarining moliyaviy faoliyati doimiy kuzatuv ostida bo'lib, bu moliyaviy risklarning erta aniqlanishiga zamin yaratadi.

G'aznachilik xizmatining tartibga solish mexanizmlari hududiy moliya boshqaruvida alohida ahamiyatga ega. Tartibga solish funksiyasi, asosan, budjet mablag'larining taqsimlanishi, likvidlikni boshqarish va moliyaviy oqimlarni muvozanatlashtirish orqali namoyon bo'ladi. Hududiy darajada daromadlar va xarajatlar o'rtasidagi nomutanosibliklar g'aznachilik orqali vaqtincha qoplanadi, bu esa budjet ijrosining uzluksizligini ta'minlaydi. Mazkur mexanizm hududlar moliyaviy mustaqilligining kengayishi sharoitida alohida dolzarb bo'lib, u budjetlararo munosabatlarda barqarorlikni saqlashga xizmat qiladi.

Hududiy moliya boshqaruvida g'aznachilik tizimi orqali amalga oshiriladigan kassa ijrosi mexanizmlari ham muhim tahlil obyektidir. Kassa ijrosi budjet mablag'larining tushumi va sarfini yagona hisob orqali amalga oshirishga asoslanadi. Bu mexanizm moliyaviy resurslarning tarqoq holda boshqarilishining oldini olib, ularning markazlashgan nazoratini ta'minlaydi. Natijada, hududiy darajada moliyaviy intizom mustahkamlanadi, budjet mablag'larining vaqtinchalik bo'sh qolishi yoki samarasiz joylashtirilishi xavfi kamayadi.

G'aznachilik xizmatining nazorat va tartibga solish mexanizmlari hududiy moliya boshqaruvida shaffoflikni oshirishga ham xizmat qiladi. Budjet ijrosi jarayonlarining axborot tizimlari orqali yuritilishi moliyaviy ma'lumotlarning ochiqligini ta'minlaydi va jamoatchilik nazoratini kuchaytiradi. Shaffoflikning oshishi esa hududiy boshqaruv organlari va budjet tashkilotlarining moliyaviy mas'uliyatini kuchaytirib, korrupsion xavflarning kamayishiga olib keladi. Shu jihatdan, g'aznachilik mexanizmlarining raqamlashtirilishi hududiy moliya boshqaruvida sifat jihatidan yangi bosqichni shakllantiradi.

Hududiy moliya boshqaruvida g'aznachilik xizmatining samaradorligi institutsional va tashkiliy omillar bilan ham bevosita bog'liq. G'aznachilik organlarining vakolatlari, ularning boshqa moliyaviy institutlar bilan o'zaro hamkorligi hamda kadrlar salohiyati nazorat va tartibga solish mexanizmlarining amaliy natijalarini belgilaydi. Amaliyot shuni ko'rsatadiki, hududiy darajada g'aznachilik xizmatining funksional mustaqilligi va aniq vakolatlari bilan ta'minlanishi moliyaviy boshqaruv sifatini sezilarli darajada oshiradi.

Bundan tashqari, g'aznachilik xizmatining nazorat mexanizmlari hududiy ijtimoiy-iqtisodiy dasturlarni moliyalashtirish samaradorligiga ham ta'sir ko'rsatadi. Dasturlar bo'yicha ajratilgan mablag'larning maqsadli sarflanishi, rejalashtirilgan natijalarga erishish darajasi va moliyaviy intizomning ta'minlanishi g'aznachilik nazorati orqali baholanadi. Bu holat hududiy rivojlanish siyosatida natijadorlikka yo'naltirilgan budjetlash tamoyillarini amalda qo'llash imkonini beradi.

Hududiy moliya boshqaruvida g'aznachilik tizimi faoliyatini tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, nazorat va tartibga solish mexanizmlarining samaradorligi ko'p jihatdan normativ-huquqiy bazaning aniqligi va barqarorligiga bog'liq. Moliyaviy tartib-taomillarning tez-tez o'zgarishi hududiy budjet ijrosida noaniqliklarni keltirib chiqarishi mumkin. Shu sababli, g'aznachilik mexanizmlarini takomillashtirish jarayonida normativ barqarorlik va institutsional izchillikni ta'minlash muhim ahamiyat kasb etadi (1-jadval).

1-jadval. Hududiy moliya boshqaruvida g'aznachilik xizmatining asosiy nazorat va tartibga solish mexanizmlari¹

Mexanizm turi	Amalga oshirish shakli	Hududiy moliya boshqaruvidagi ahamiyati
Dastlabki moliyaviy nazorat	Xarajatlar smetasi va to'lov hujjatlarini oldindan tekshirish	Budjet mablag'larining noqonuniy va maqsadsiz sarflanishining oldini olish
Joriy moliyaviy nazorat	Budjet ijrosi jarayonida real vaqt monitoringi	To'lov intizomini mustahkamlash va moliyaviy risklarni erta aniqlash
Kassa ijrosini tartibga solish	Budjet mablag'larini yagona g'aznachilik hisobi orqali boshqarish	Likvidlikni ta'minlash va moliyaviy oqimlarni muvozanatlash
Moliyaviy axborotlarni monitoring qilish	Hisobotlar va axborot tizimlari orqali nazorat	Shaffoflikni oshirish va hisobdorlikni kuchaytirish
Tartibga soluvchi cheklovlar	Normativ limitlar va tartib-taomillar	Hududiy budjet intizomini ta'minlash
Natijadorlikni baholash	Xarajatlar va natijalar o'rtasidagi bog'liqlikni tahlil qilish	Hududiy dasturlar moliyaviy samaradorligini oshirish

Jadvalda hududiy moliya boshqaruvida g'aznachilik xizmatining nazorat va tartibga solish mexanizmlari tizimli tarzda aks ettirilgan bo'lib, ularning har biri budjet ijrosining barqarorligi va moliyaviy intizomni ta'minlashda muhim funksional ahamiyatga ega. Dastlabki moliyaviy nazorat mexanizmi hududiy budjet xarajatlarni rejalashtirish bosqichidayoq huquqiy va moliyaviy talablarga muvofiqligini tekshirish imkonini berib, budjet mablag'larining maqsadsiz yoki noqonuniy sarflanishi xavfini sezilarli darajada kamaytiradi. Joriy moliyaviy nazorat esa budjet ijrosi jarayonida real vaqt rejimida monitoring olib borish orqali to'lov intizomini mustahkamlash va moliyaviy risklarni erta aniqlashga xizmat qiladi.

Kassa ijrosini tartibga solish mexanizmi budjet mablag'larini yagona g'aznachilik hisobi orqali boshqarish asosida hududiy darajada likvidlik muvozanatini ta'minlaydi va moliyaviy oqimlarning uzluksizligini kafolatlaydi. Moliyaviy axborotlarni monitoring qilish va hisobot tizimlarining joriy etilishi shaffoflikni oshirib, hududiy boshqaruv organlarining hisobdorligini kuchaytiradi. Tartibga soluvchi cheklovlar va normativ limitlar esa budjet intizomini institutsional jihatdan mustahkamlashga xizmat qiladi. Natijadorlikni baholash mexanizmi orqali xarajatlar va erishilgan natijalar o'rtasidagi bog'liqlik tahlil qilinib, hududiy dasturlar moliyaviy samaradorligini oshirish imkoniyati yaratiladi. Umuman olganda, jadvalda keltirilgan mexanizmlar hududiy moliya boshqaruvida g'aznachilik xizmatining markaziy rolini yaqqol namoyon etadi.

Umuman olganda, hududiy moliya boshqaruvida g'aznachilik xizmatining nazorat va tartibga solish mexanizmlari moliyaviy resurslardan foydalanish samaradorligini oshirish, budjet intizomini mustahkamlash va hududiy rivojlanish dasturlarining moliyaviy ta'minotini barqarorlashtirishda muhim rol o'ynaydi. Mazkur mexanizmlarning chuqur tahlili g'aznachilik tizimini takomillashtirish orqali hududiy moliya boshqaruvida sifat jihatidan yangi natijalarga erishish imkonini beradi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

O'tkazilgan tahlil natijalari shuni ko'rsatadiki, hududiy moliya boshqaruvida g'aznachilik xizmatining nazorat va tartibga solish mexanizmlari budjet intizomini mustahkamlash, moliyaviy resurslardan foydalanish samaradorligini oshirish hamda hududlar moliyaviy barqarorligini ta'minlashda muhim institutsional omil hisoblanadi. G'aznachilik tizimi orqali budjet mablag'larining yagona hisob asosida boshqarilishi, dastlabki va joriy moliyaviy nazoratning amalga oshirilishi hamda kassa ijrosining muvozanatli yuritilishi hududiy darajada moliyaviy oqimlar ustidan samarali nazoratni ta'minlaydi. Bu esa budjet mablag'larining maqsadsiz sarflanishi, moliyaviy intizom buzilishlari va likvidlik bilan bog'liq muammolarni kamaytirishga xizmat qiladi.

Shu bilan birga, hududiy moliya boshqaruvida g'aznachilik xizmatining imkoniyatlaridan to'liq foydalanish uchun mavjud nazorat va tartibga solish mexanizmlarini zamonaviy talablar asosida yanada takomillashtirish zarur. Xususan, g'aznachilik faoliyatida raqamli texnologiyalarni keng joriy etish, budjet ijrosini real vaqt rejimida monitoring qilish imkoniyatlarini kengaytirish va moliyaviy axborotlar shaffofligini oshirish orqali hududiy boshqaruv organlarining moliyaviy mas'uliyatini kuchaytirish mumkin. Bunda g'aznachilik tizimining normativ-huquqiy asoslarini izchil va barqaror rivojlantirish, hududiy darajada vakolatlar va mas'uliyatni aniq belgilash muhim ahamiyat kasb etadi.

Hududiy moliya boshqaruvi samaradorligini oshirishda g'aznachilik xizmatining institutsional salohiyatini kuchaytirish, kadrlar malakasini oshirish va moliyaviy nazoratning sifat jihatidan yangi yondashuvlarini joriy etish muhim yo'nalishlardan biri bo'lib qolmoqda. G'aznachilik mexanizmlarining natijadorlikka yo'naltirilgan budjetlash tamoyillari bilan uyg'unlashuvi hududiy ijtimoiy-iqtisodiy dasturlarni moliyalashtirish samaradorligini

1 Muallif ishlanmasi



oshirishga xizmat qiladi. Natijada, g'aznachilik xizmatining nazorat va tartibga solish mexanizmlarini kompleks rivojlantirish hududiy moliya boshqaruvining barqarorligi va shaffofligini ta'minlashga, shuningdek, hududlarning uzoq muddatli ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga mustahkam moliyaviy asos yaratishga imkon beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Pretorius C., Pretorius N. Public Financial Management Reform Literature Review. – London: Department for International Development (DFID), 2009. – 84 p.
2. International Monetary Fund. Treasury Single Account: Concept, Design, and Implementation. – Washington, D.C.: IMF Fiscal Affairs Department, 2011. – 56 p.
3. Organisation for Economic Co-operation and Development (OECD), SIGMA. Financial Management and Control of Public Agencies. – Paris: OECD Publishing, 2001. – 92 p.
4. Mir M., Sutyono W. Public sector financial management reform: A case study of local government agencies in Indonesia // Australasian Accounting, Business and Finance Journal. – 2013. – Vol. 7, No. 4. – P. 97–117.
5. World Bank. Public Financial Management Reform in Developing Countries: An Analytical Framework. – Washington, D.C.: World Bank Publications, 2010. – 112 p.
6. Marlowe J. Public Financial Management: Concepts and Applications. – New York: Routledge, 2014. – 256 p.
7. Allen R., Hemming R., Potter B. The International Handbook of Public Financial Management. – London: Palgrave Macmillan, 2013. – 912 p.
8. Allen R. Cash management and treasury management in government // IMF Working Paper. – Washington, D.C.: International Monetary Fund, 2009. – 48 p.
9. Potter B.H., Diamond J. Guidelines for Public Expenditure Management. – Washington, D.C.: International Monetary Fund, 1999. – 210 p.
10. Shah A. Budgeting and Budgetary Institutions. – Washington, D.C.: World Bank, 2007. – 316 p.
11. Schick A. The changing role of the central budget office // OECD Journal on Budgeting. – Paris: OECD Publishing, 2002. – Vol. 1, No. 1. – P. 9–37.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2025. № 12

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>
